Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321050

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

3. Maxmudov, S., & Sherxanov, I. (2024). INNOVATSION SOHADA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MUNOSABATLARINING O'RNI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 2(2), 174–181. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss2-pp174-181

4. Maxmudov Sh.X., Mirzayeva Sh.M. O'zbekistonda inson kapitalini tijoratlashtirishning aholi farovonligi darajasiga ta'siri. "Sirdaryo viloyatini innovatsion hududga aylantirish istiqbollari: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman: to'plam / – Sirdaryo: Ziyo nashr-matbaa, 2024.–928b

YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOTNING ZARURIYATI

Axunova Ma'rifat Xakimovna
Farg'ona politexnika instituti "Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi
ahunovamarifatxakimovna@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotni isloh qilishda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Qayd etish joizki, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning asosiy maqsadlari sifatida iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilishni kiritish mumkin. Maqola "yashil" iqtisodiyotning asosiy konsepsiyasi, atrof-muhitni himoya qilish va boshqa muammolarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, energiya samaradorligi, arzon va ishonchli elektr ta'minoti, energoresurslar , "Yashil" o'sish indeksi.

Insoniyat yaralibdiki, har doim tabiat va jamiyat bilan kurashib kelgan. Lekin ularning bu harakati doimo cheklangan doirada amal qilgan, chunki insoniyatning o'zi cheklangan imkoniyatlar dunyosida yashab kelmoqda. Tabiatning rivojlanish qonuni va qonuniyatlari bor va ularni inson doim inobatga olishi lozim. Insonning ham yaxshi yashashi uchun o'zining qonunlari va qonuniyatlari mavjud. Inson va tabiat shu ikki guruh qonunlari, me'yoriy hujjatlar asosida yashashi, faoliyat ko'rsatishi lozim.

Shu davr ichida inson o'zining aqliy mehnati bilan yashash darajasini yaxshilashi uchun ogir qo'l mehnatini texnikaga almashtirdi, ya'ni ular ixtiro qilindi, yaratildi va amalda keng qo'llanilmoqda. Aytish joizki, inson xayotining barqaror farovonligini ta'minlashga qaratilgan "yashil" iqtisodiyotga o'tishga amaliy xarakatlar boshlandi.

Xususan, respublikamizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 4 oktyabrda tasdiqlangan "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. Shuningdek, "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan tejamli foydalanish kiradi. Belgilangan ushbu maqsadli indikatorlarga esa texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030 yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi. O'zberkiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zberkistonning

Published: 23.12.2024
Cite this article: Axunova Ma'rifat Xakimovna (2024). Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotning zaruriyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321050
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi farmoni bilan "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va xavoga chiqariladigan zararli gazlar xajmini 20 foizga qisqartirish belgilab berilgan [1].

Shuningdek, O‘zberkiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zberkiston – 2030” Strategiyaning 51-maqsadi "Yashil" iqtisodiyotga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish" deb belgilangan [2]. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste’moldagi ulushini 40 foizga yetkazish hamda sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini rivojlantirish va "ekologik markirovkalash" amaliyotini joriy qilish alohida belgilab berilgan.

2022 yilning 2 dekabrida O‘zberkiston Respublikasi Prezidentining "2030 yilgacha O‘zberkiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi P-436-sonli qarori qabul qilindi [3]. Ushbu qarorga ko‘ra, 2030 yilgacha O‘zberkiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o‘tish va "yashil" o‘sishni ta’minlash dasturi ishlab chiqildi. Unda belgilanishicha issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010 yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish; qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ishlab chiqarish quvvatlarini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy xajmining 30 foizidan

ko‘progiga yetkazish; iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish; yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish kabi bir necha o‘nlab aniq vazifalar belgilab berildi. Xususan, Jizzax, Samarkand, Surxondaryo, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida 5 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyalarining birinchi bosqichi ishga tushirildi. Ularning umumiy quvvati 2400 MVtni tashqil qiladi. Mazkur investitsiya loyihalarning hamkorlari "Masdar" (BAA), "China Energy Engineering Corporation" (Xitoy), "China Energy International Group", "China Gezhouba Group" va "SEPCO III, Dongfang Electric Corporation" kompaniyalari hisoblanadi [4]. Ekologik muammolarning salbiy ta’sirini yumshatish va "yashil" iqtisodiyotga o‘tish boshqa davlatlar qatori O‘zberkiston uchun ham davr talabi bo‘lib qoldi. "Yashil" iqtisodiyotga o‘tish keng qamrovli murakkab jarayon. Atrof-muhitning ekologik holati, alternativ variantlarga ega bo‘lgan elektroenergiyani ishlab chiqarish, "yashil" transport, chiqindilar va "yashil" texnologiya, yer va suvga bo‘lgan insonni munosabatlari shular jumlasidandir. Yana shuni ta’kidlash joizki, bu muammolar har bir xududda har xilligi hamda xududlarning o‘ziga xos xususiyatlari alohida yondashuv talab qiladi.

“Yashil iqtisodiyot” faqat energetika sohasini isloh qilishdan iborat emas. Uning ichiga toza ichimlik suvi muammolari, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligidagi innovatsiyalar, barqaror shaharlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o‘rmon hududlarini kengaytirish, cho‘llanishni qisqartirish kabi ko‘p qirrali va keng tarmoqli chora-tadbirlar kirib ketadi. Xalqaro tashqilotlar tomonidan dunyoda va alohida mamlakatlarda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va “yashil” o‘sishga o‘tish holatini baholash imkonini beruvchi turli ko‘rsatkichlar to‘plamlari ishlab chiqilgan bo‘lib, amaliyotda qo‘llanib kelinmoqda. Xususan, bugungi kunda dunyo bo‘yicha “yashil” iqtisodiyot samaradorligini baholaydigan Global “yashil” iqtisodiyot indeksi (Global Green Economy Index – GGEI) hamda “Yashil” o‘sish indeksi (Green Growth Index – GGI) kabi xalqaro reyting ko‘rsatkichlari keng qo‘llanilmoqda. GGEI reyting ko‘rsatkichi 2010-yildan boshlab e’lon qilina boshlangan. Shu o‘rinda mamlakatimizning "yashil"

iqtisodiyotga o‘tishi va ekologik muammolar yechimini hal qilishi uchun quyidagilar taklif qilinadi:

1) Energoresurslardan, suvdan, yerdan tejamkorlik bilan samarali foydalanish;

2) Elektroenergiya ishlab chiqarishga, chiqindilarni qayta ishlashga investitsiya kiritish asosida davlat, xususiy-sherikchilik va xususiy korxonalarni tashqil qilish;

3) Xalqimizni ekologik savodxonligini, bilimini, ekologik dunyo qarashini yanada kengrok shakllantirish;

4) uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida energiya tejamkorligini ta’minlash;

5) ekotizimlarni samarali boshqarish;.

6) Atrof-muhitning ekologik xolati, alternativ variantlarga ega bo‘lgan elektroenergiyani ishlab chiqarish, "yashil" transport, chiqindilar va "yashil" texnologiya, yer va suvga bo‘lgan insonni munosabatlari shu yo‘nalishlardadir.

Demak, "yashil" iqtisodiyotga tezroq o‘tish uchun, mavjud ekologik muammolarni yechimini topish uchun iqtisodiy mexanizmini ilmiy va amaliy jihatdan qanoatlantirilgan holda tezroq qo‘llash lozim bo‘ladi, ya’ni foydalaniladigan resurslar me’yori va narxlari asosida imtiyozlar va jarimalar tizimini takomillashtirib, keng ko‘lamda amalda qo‘llanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga muljallangan yangi O‘zbekistonning tarakkiyot strategiyasi tugrisida"gi PF-60-son farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O‘zbekiston-2030" strategiyasi tugrisida"gi PF-158-son farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrdagi "2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga utishiga karatilgan isloxotlar samaradorligini oshirish buyicha chora-tadbirlar tugrisida"gi P^-436-son karori.

4. A.Nigmatov va boshk. Barkaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari. Monografiya. - T.: "Spectrum Media Group", 2015. - 120 b

5. M.T Bo‘taboyev.,- ” Yashil iqtisodiyot” , Darslik, Farg‘ona, 2023.

6. M.T Bo‘taboyev., I.N.Ismanov., ” Yashil iqtisodiyot”, O‘quv qo‘llanma, Farg‘ona, 2024.

BYUDJET SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Dustmirzayev Farxod Bekmirzayevich
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tayanch doktoranti
85fara19@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbekistonda iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga bozor mexanizmlarini izchillik bilan joriy etish, kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish,raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, davlat kompaniyalarini transformatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini tashkil etadi. Mazkur iqtisodiy islohotlar doirasida budjet siyosatini